2026–o'quv yili Hoseo univresiteti Koreys tili ta'lim markazi o'quv jarayoni bo'yicha qo'llanma

호서대학교
한국어교육센터
HOSEO UNIVERSITY
KOREAN LANGUAGE CENTER

Mundarija

01. O'quv rejasi ·····2
02. Darslarni tashkil etish ·····2
03. Dasrdan tashqari tadbirlar ·····4
04. Talabalarga yordam ko'rsatish ·····5
05. Boshqa ma'lumotlar ·····7

호서대학교
HOSEO UNIVERSITY

Manzil: 호서대학교 국제협력본부 한국어교육센터
충청남도 아산시 배방읍 호서로 79번길 20
강석규교육관 101호 (31499)

01 O'quv rejasi

Semestr	Fasliy semestr	Oy	Reja(tadbirlar)
1semestr/20hafta '26.03.05~08.05	Bahorgi semestr / 10 hafta ('26.03.05~05.21)	Mart	- Muntazam kurs yangi talabalari uchun orientatsiya va darajani aniqlash testi - Talabalar bilan boshlang'ich suhbat
		Aprel	- Bahorgi semestr oraliq imtihoni - Bahorgi semestr madaniy tadbiri - Talabalar bilan hayotiy maslahatlashuv suhbati
		May	- Bahorgi semestr yakuniy imtihoni - Universitet festivali
	Yozgi semestr / 10 hafta (05.26.~08.05)	Iyun	- 2026-2 semestr uchun talabalar kelajak yo'nalishini aniqlash so'rovnomasi - Yozgi semestr madaniy tadbiri - 2026-2 semestr uchun viza muddatini uzaytirish
		Iyul	- Yozgi semestr yakuniy imtihoni - 2026-1 semestr yakuni (kanikul boshlanishi)
2semsetr/20hafta 09.01~'27.01.31)	Kuzgi semestr / 10 hafta ('26.09.01~11.13)	Sentabr	- Muntazam kurs yangi talabalari uchun orientatsiya va darajani aniqlash testi - Talabalar bilan boshlang'ich suhbat
		Oktabr	- Kuzgi semestr oraliq imtihoni - Kuzgi semestr madaniy tadbiri - Talabalar bilan hayotiy maslahatlashuv suhbati
		Noyabr	- Kuzgi semestr yakuniy imtihoni
	Qishki semestr / 10 hafta (11.23.~'27.02.02)	Dekabr	- 2027-1 semestr uchun talabalar kelajak yo'nalishini aniqlash so'rovnomasi - Qishki semestr madaniy tadbiri - 2027-1 semestr uchun viza muddatini uzaytirish
		27-yanvar	- Qishki semestr yakuniy imtihoni - 2026-2 semestr yakuni

02 Dastlarni tashkil etish

Guruhlarga bo'linish

- Talabaning koreys tili darajasiga ko'ra, fuqaroligi va jinsi kabi omillarni hisobga olgan holda 1-daraja A (1급A) dan 6-daraja B (6급B) gacha bo'lgan tegishli guruhlarga joylashtiriladi.
- Koreys tili mahoratini baholash uchun yangi talabalar har semestr darslar boshlanishidan oldin Darajani aniqlash testi (Level Test) topshiradilar. Amaldagi (o'qiyotgan) talabalar uchun esa o'tgan semestrdagi yakuniy imtihon natijalari asos qilib olinadi.

■ Bahorgi va kuzgi semestrlar yakunlangach, yozgi va qishki semestrlarda yakuniy imtihon natijalariga ko'ra guruhlar qaytadan shakllantiriladi.

Darajalar bo'yicha o'quv mazmuni

Daraja	Ta'lim maqsadi	Asosiy o'qiv mazmuni
1급	Kundalik hayot uchun zarur bo'lgan asosiy muloqotni amalga oshira oladi.	- o'qish/yozish, asosiy salomlashish iboralari - Boshlang'ich so'z boyligi va asosiy gap tuzilmalari
2급	Oddiy ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan koreys tilini tushunadi va ishlata oladi.	- Kundalik suhbat, telefonlashish, taklif qilish, iltimos qilish - O'tgan va kelasi zamon qo'shimchalari
3급	Kundalik va ijtimoiy hayotda ko'p qo'llaniladigan iboralarni tushunadi va ishlata oladi.	-- Murakkab gap tuzilmalari (majhul nisbat, orttirma nisbat, ko'chirma gap va h.k.) - Ijtimoiy mavzularda suhbat, oddiy matn yozish (tanishtiruv, fikr bildirish matnlari)
4급	Kundalik va professional mavzularda o'z fikrini bayon qila oladi.	- Aniq ijtimoiy-madaniy mavzularni tushunish, munozara va taqdimot mashqlari - Maqolalarni xulosalash va esse yozish
5급	Professional sohalar yoki mavhum mavzularda muloqot qila oladi.	- Joriy voqealar, iqtisodiyot va madaniyatga oid so'zlarni o'rganish, yuqori darajadagi grammatika va iboralar - Hisobot/argumentativ esse yozish, taqdimot va munozara ko'nikmalarini oshirish
6급	Akademik va professional vaziyatlarda koreys tilida erkin so'zlasha oladi.	-- Akademik yozish va taqdimot, turli nutq uslublarini tushunish - Ijtimoiy-madaniy mazmunni anglash, o'xshatish, maqol va iboralarni qo'llash

Dars vaqti

■ **1 semestr 20 hafta** / 400 soat (haftada 5 kun dars 4 soatdan)

Guruhlar	1-soat	2-soat	3-soat	4-soat
Ertalabgi	09:00 ~ 09:50	10:00 ~ 10:50	11:00 ~ 11:50	12:00 ~ 12:50
Kechgi	13:30 ~ 14:20	14:30 ~15:20	15:30 ~ 16:20	16:30 ~ 17:20

Darsliklar (kitob)

■ Seoul National University (SNU) Korean Plus (Student Book & Workbook)
O'quv mavsumi boshlangan birinchi haftada darslar o'qituvchi tomonidan tarqatiladigan materiallar asosida olib boriladi.

■ Guruhlarga taqsimlash natijalariga ko'ra, darajangizga mos darsliklarni sotib olishingiz kerak bo'ladi. (2 ta kitob taxminan 50,000 von atrofida).

O'qishni bitirish uchun talablar

■ Talaba dars soatlarida albatta ishtirok etishi shart. O'qishni tamomlaganlik haqidagi sertifikatni olish uchun davomat

70% dan yuqori bo'lishi kerak.

- Biroq, shaxsiy sabablarga ko'ra darsda qatnashishning iloji bo'lmagan holatlarda (sog'liq muammolari, oilaviy marosimlar va h.k.) tegishli tasdiqlovchi hujjat taqdim etilsa, ushbu kunlar darsda qatnashgan deb hisoblanishi mumkin.
- Baxolash mezonlari

Bo'limlar	Imtixon baholari	GPA baholari(20%)	Umumiy baholar
Eshitish / so'zlashish / o'qish / yozish	80% (xar bir bo'limdan 20%dan)	20% (과제 및 수업참여 등)	100%

03 Darsdan tashqari tadbirlar

Maxsus tadbirlar

- Sinf ichidagi muntazam darslardan tashqari turli xil dasturlar tayyorlangan.

Yo'nalish	Reja	Mazmuni
Koreya madaniyatini tajriba qilib ko'rish	Semestr davomida 1-2marotaba	- Turli madaniy dasturlar orqali koreys madaniyatini tushunishga yordam berish, talabalar o'rtasida do'stlik va jipslikni mustahkamlash. - Diqqatga sazovor madaniy joylarga tashrif buyurish, koreys madaniyati tadbirlari va h.k.
Ixtiyoriy darslar (Erkin ta'lim)	Semestr davomida 1-2marotaba	- Sinf xonasidagi darslardan tashqariga chiqqan holda, o'qituvchi yordamida talabaning mustaqil o'rganish qobiliyatini oshirish uchun ixtiyoriy faoliyatlarni amalga oshirish.
Boshqa tadbirlar	Semestr davomida	- Mavsumiy tadbirlar: Bayramlar (Yangi yil, Chuseok), Rojdestvo va boshqalarda talabalarni rag'batlantirish tadbirlari.- Sport musobaqalari, koreys tili notiqlik san'ati tanlovi, iqtidorlar shousi va boshqalar (maktab sharoitidan kelib chiqib o'tkaziladi).

Universitet dasturlarida ishtirok etish

- Universitetning turli tadbirlari va dasturlarida birgalikda ishtirok etishingiz mumkin.

Yo'nalish	Reja	Mazmuni
TOPIKka tayyorlov qisqa muddatli kurs (bepul)	Semestr davomida 1-2 marta	- Rasmiy TOPIK imtihonidan 3 hafta oldin o'tkaziladi. - TOPIK imtihoni uchun maxsus ma'ruza. - TOPIK mutaxassislari tomonidan koreys tilida eshitish, gapirish, o'qish va yozish darslari.
Universitet festivali	May, Oktabr	- Universitet festivallarida ishtirok etish: Davlatlar bo'yicha stendlar (booth) tashkil qilish. - Olcha guli festivali, fotosessiyalar, universitet ichidagi konsertlarda qatnashish.
EMC (English Multi Language Cafe)	Semestr davomida	- Turli mamlakatlardan kelgan talabalar bilan muloqot qilish va almashinuv (ingliz, xitoy, yapon tillari va h.k.).
Buddy Program (Do'stlik dasturi)	Semestr davomida	- Koreyalik talabalar bilan 1:1 muloqot qilish orqali koreys tili darajasini oshirish va madaniyat almashish.
Xalqaro talabalar uyushmasi (Global Network)	Yil davomida	- - Xalqaro talabalardan tashkil topgan global tarmoqqa a'zo bo'lish, turli mamlakat talabalari bilan muloqot qilish va o'z vatanida Hoseo universitetini targ'ib qilish.
Boshqa tadbirlar	Yiliga 1 marta	- "Xush kelibsiz, Koreyaga birinchi marta kelishingizmi?" dasturi orqali maktab yaqinidagi diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish. - Xalqaro talabalar o'rtasida davlatlararo futbol musobaqasi (universitet ichida va tashqarisida).

Hududiy tadbirlar

- Cheonan, Asan va Chungnam hududlarida o'tkaziladigan turli mintaqaviy tadbirlarda ishtirok etiladi.
  - Cheonan Global o'yinlar festivali

04 Talabalarni qo'llab-quvvatlash

Xalqaro talabalar uchun maslahat markazi

- Xalqaro talabalarning o'qish va hayot davomida duch keladigan turli qiyinchiliklarini hal qilish va Koreyadagi hayotga oson moslashishlariga yordam berish maqsadida Xalqaro talabalar maslahat markazi faoliyat yuritmoqda.
- Koreys tili ta'lim markazi (1 va 2-bosqich suhbatlar) $₩rightarrow$ Zarurat tug'ilganda Xalqaro talabalar maslahat markaziga yo'llanma $₩rightarrow$ Davlatlar bo'yicha maslahatchi mutaxassislar bilan suhbat.
- Ingliz, xitoy, vetnam tillari, MDH (CIS) davlatlari va boshqa tillar bo'yicha maslahatchi mutaxassislar tizimli va samarali maslahat beradilar.
- Ruhiy xotirjamlik, jamoaga mansublik hissi va o'qish samaradorligini oshirishda ushbu markazdan katta yordam olish mumkin.

Xalqaro hamkorlik bo'limi (International Affairs Team)

- Xalqaro hamkorlik bo'limi Gangseok-gyu binosining 101-xonasida joylashgan bo'lib, Koreys tili ta'lim markazi talabalariga turli ma'muriy xizmatlarni ko'rsatadi (Tel: 041-540-9714~5).

■ ID karta bilan bog'liq

- Koreyaga birinchi marta kirib kelgan talabalar chet ellikni ro'yxatga olish guvohnomasini olish uchun ariza topshirishlari shart. Pasport, yashash joyi shartnomasi, fotosurat va ariza to'lovi (35,000 von) talab qilinadi. Xalqaro hamkorlik bo'limi ariza topshirishda yordam beradi.
- Yashash joyingiz o'zgargan taqdirda, 2 hafta ichida ID kartangizdagi manzilingizni o'zgartirishingiz shart. Buni onlayn tarzda (Hi Korea saytida) amalga oshirish mumkin va Xalqaro hamkorlik bo'limi bunga yordam beradi. 2 haftadan o'tib ketsa, onlayn o'zgartirib bo'lmaydi va jarima qo'llaniladi.

■ Viza bilan bog'liq

- Til o'rganish vizasi (D-4) odatda 6 oylik yashash muddatini beradi.
- Shaxsiy yashash muddati (viza amal qilish muddati)ni yaxshilab tekshirib turishingiz kerak. Viza muddati tugashidan oldin albatta uni uzaytirish uchun ariza topshirish shart.
- Xalqaro hamkorlik bo'limi tomonidan beriladigan viza uzaytirish haqidagi e'lonlarni diqqat bilan kuzatib boring. Savollaringiz bo'lsa, bo'limga bog'laning yoki tashrif buyuring, sizga yordam berishadi.
- iza muddati tugaguncha uzaytirmasangiz, jarima qo'llaniladi.

■ Bank hisob raqamini ochish

- Koreyaga birinchi marta kelgan talabalar bank hisob raqami ochishlari va bank kartasini olish uchun ariza berishlari kerak. Bank kartasi talabalik guvohnomasi vazifasini ham bajaradi.
- Bank hisob raqami ochishda Xalqaro hamkorlik bo'limiga kelsangiz, yordam berishadi.

■ Tibbiy sug'urta bilan bog'liq

- Til kursi talabalari Koreyaga kelgach, maktab ko'rsatmasi bilan guruh bo'lib sug'urtadan o'tadilar. Sug'urta to'lovi taxminan 70,000 ~ 110,000 von (1 yil uchun, talabaning yoshiga qarab farq qilishi mumkin).
  - Koreyaga kelgan kundan boshlab 6 oy o'tgach, Koreya fuqarolari bilan bir xil bo'lgan Milliy tibbiy sug'urta (NHIS) tizimiga avtomatik ravishda a'zo bo'lasiz. Sug'urta to'lovi oyiga taxminan 70,000 ~ 80,000 vonni tashkil qiladi.
- Kasal bo'lib qolsangiz yoki jarohat olsangiz, holat jiddiy bo'lmasa, universitet ichidagi Tibbiyot markazi (보건센터) ga murojaat qilib, bepul yordam olishingiz mumkin.
- Agar holat jiddiy bo'lib, shifoxonaga borish kerak bo'lsa va til bilmasangiz, Xalqaro hamkorlik bo'limiga murojaat qiling. Ular shifoxonaga hamrohlik qilishadi va davolanishdan so'ng sug'urta pullarini olishda yordam berishadi.
- Sug'urta to'lovlarini qaytarib olish
  1) Dastlabki 6 oy davomida (Maktab guruhiy sug'urtasi): Shifoxonada davolangach, to'lovni o'zingiz qilasiz -> Xalqaro hamkorlik bo'limiga kvitansiya (영수증) va shifokor xulosasi (초진차트) kabi hujjatlarni topshirasiz -> Sug'urta arizasini to'ldirasiz -> Sug'urta puli hisobingizga tushadi.
  2) 6 oydan keyin (Milliy tibbiy sug'urta): Shifoxonada davolanish vaqtida sug'urta imtiyozlari avtomatik ravishda qo'llaniladi.

■ Turli xil ma'lumotnomalarni olish

- O'qish joyidan ma'lumotnoma (재학증명서), to'lov kvitansiyasi, davomat va baholar haqidagi ma'lumotnomalarni Koreys tili ta'lim markazi PORTAL tizimi orqali talabaning o'zi mustaqil olishi mumkin. Portaldan foydalanishga qiynalsangiz, Xalqaro hamkorlik bo'limi yordam beradi.

■ Vaqtinchalik ish

- Koreyaga kelganingizga 6 oy bo'lgach, qonuniy ravishda ishlash (vaqtinchalik mehnat) huquqiga ega bo'lasiz.
- Ishlashni xohlasangiz, kerakli hujjatlarni (ish beruvchining guvohnomasi, shartnoma, ish beruvchi ID nusxasi va h.k.) tayyorlab, Xalqaro hamkorlik bo'limidan tasdiqdan o'tishingiz, so'ngra Migratsiya xizmatiga (Immigratsiya) ariza topshirishingiz kerak. Noqonuniy ishlash baxtsiz hodisalar yuz berganda sizga katta zarar keltirishi mumkin.

■ Yo'qotilgan buyumlar va turli hodisalar

- Pasport, ID karta yoki bank kartasi kabi muhim narsalaringizni yo'qotib qo'ysangiz, Xalqaro hamkorlik bo'limiga

murojaat qiling.

- Shuningdek, firibgarlik (voice phishing), yo'l-transport hodisasi yoki boshqa ko'ngilsiz holatlarga duch kelsangiz, Xalqaro hamkorlik bo'limi sizga yordam beradi.

Kutubxona

■

■ 정보·자료 제공, 문화체험, 휴식, 창의적 커뮤니티 활동을 지원하는 학습 문화 공간입니다.

■ 도서대출, 신규도서 구입 신청, 일반열람실 이용, 예약 이용(24시간 열람실, 그룹스터디룸/크리에이티브룸 시네마룸, 소극장 등) 가능

Bo'limlar		Asan kampus kutubxonasi	Chonan kampus kutubxonasi	
Foydalanish vaqti	Semestr davomida	Ish kunlari 09:00~20:00		
	Tatil davomida	dushanbadan payshanbagacha: 09:00~17:00 / juma: 09:00~13:00		
kutubxona rasmiy sayti		https://library.hoseo.ac.kr (로그인은 학교 포털시스템과 동일)		

Tibbiy xizmat ko'rsatish markazi

■ Sog'lig'i yomonlashgan talabalar universitet ichidagi tibbiy markazda tibbiy xizmatlardan foydalanishlari mumkin.

- Ish vaqti: Ish kunlari 09:00-17:20 / Ta'til paytida 09:00-16:50 (Tushlik: 12:00-13:00).
- Xizmatlar: Har qanday dori bir martalik miqdorda beriladi $₩rightarrow$ dori ichgandan keyin ham simptomlar davom etsa, shifoxona yoki dorixonaga borish tavsiya etiladi.
- 체성분 분석(인바디) 학기 2회 가능
- Tashrif → Ro'yxatdan o'tish(rozilik arizasini yozish) → Topshirish → Maslaxat va muolaja.
- 아산캠퍼스 / 041-540-5281 / 제1공학관 354호
  천안캠퍼스 / 041-560-8469 / 1호관

Boshqa universitet ichidagi ob'ektlar

Asan kampusi		Cheonan kampusi	
Bino nomi	**Mavjud xizmatlar**	**Bino nomi**	**Mavjud xizmatlar**
산학협동별관	Pochta, IBK Bank	종합정보관	Kafe, do'kon, nusxa ko'chirish xonasi
강석규교육관	B1: Do'kon, kafe, kanselyariya, karaoke	복지회관	Food court, optika, fotosalun
후생관	Do'kon, fitnes zal, dam olish xonasi, oshxona	복지교육관	Do'kon, kitob do'koni, kanselyariya
성재도서관	San'at muzeyi (6-qavat), EMC (B1), Global Lounge (B1, xalqaro talabalar uchun)	1호관	Kafe, internet-kafe, Global Lounge (B1)
체육관	Wellness markazi, stol tennisi, taekvondo zali, sport kortlari	대강당	Do'kon

무선랜 이용

■ 교내에서 무료로 무선랜을 사용할 수 있습니다

구분	내용
가능지역	아산캠퍼스 및 천안캠퍼스 전체건물 (생활관 등 일부 건물 제외)
이용대상	1. HOSEO_WLAN : 교직원/재학생
접속방법	1. WiFI 설정 메뉴에서 무선네트워크 이름(SSID)을 HOSEO_WLAN으로 선택합니다. 2. ID는 학번 또는 교번, 비밀번호는 주민등록번호 앞 6자리를 입력합니다. 3. 사용자계정은 학번 또는 교번, 패스워드는 주민등록번호 앞 6자리를 입력합니다.

05 Boshqa ma'lumotlar

Bakalavr (Magistratura)ga o'qishga kirish

■ Koreys tili ta'lim markazidagi kursni tamomlagandan so'ng, universitet yoki magistraturaga o'qishga kirish mumkin.

■ Qabul jadvali

Bosqich	2026-2 semestr (kuzgi qabul)	2027-1 semestr (bahorgi qabul)	Izoh
Hujjat topshirish	2026-yil May~Iyun	2026-yil Noyabr~Dekabr	1. Aniq muddatlar keyinroq e'lon qilinadi. 2. TOPIK 3-daraja talab qilinadi (San'at va sport yo'nalishlari uchun 2-daraja). 3. Grantlar TOPIK darajasiga ko'ra 50% dan 100% gacha beriladi.
Hujjatlarni tekshirish / suxbat	2026-yil Iyun~Iyul	2026-yil Dekabr~2027-Yanvar	
Natijalarni e'lon qilish	2026-yil Iyul o'rtasi	2027-yil Yanvar o'rtasi	

■ Batafsil ma'lumot uchun Xalqaro hamkorlik bo'limiga murojaat qiling.

Vaqtinchalik ish (Arbayt)

- O'qishga kirganingizdan keyingi dastlabki 6 oy davomida ishlash taqiqlanadi.
- 6 oy o'tgach, talabalar uchun ruxsat etilgan darajadagi vaqtinchalik ish faoliyati bilan faqat maxsus ruxsatnoma olgandan keyin shug'ullanish mumkin.
- Ruxsat etilgan ish soatlari:

Koreys tili bilim darajasi	Talabga javob beirsh	Ish kunlari(du~juma)	Dam olish kunlari / tatil	Sertifikatlangan universitetlar uchun
TOPIK 2-darajadan yuqori YOKI Sejong Hakdang 2-bosqichdan yuqori	0	20 soat		25 soat
Yuqoridagi talablarga javob bermasa	x	10 soat		

- Ruxsat olish tartibi:

- Hujjatlarni tayyorlash (Mehnat shartnomasi, ish beruvchi guvohnomasi nusxasi, ish beruvchi ID nusxasi).
- Vaqtinchalik ish faoliyati uchun tasdiqnoma yozish (Xalqaro hamkorlik bo'limiga tashrif buyuriladi).
- Ariza topshirish (Onlayn yoki Migratsiya xizmatiga borib).
- Ruxsat olish (Pasportga stiker yopishtiriladi yoki ruxsatnoma chop etiladi).

※ Eslatma: Ruxsatnomasiz ishlash moliyaviy va huquqiy jihatdan salbiy oqibatlarga (jarima, deportatsiya va h.k.) olib kelishi mumkin.

Bog'lanish uchun ishonch raqamlari

SNS
kakao

e-mail : apply@hoseo.edu
Tel : +82-41-540-9712~15